

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**IFODALI O'QISH VA NUTQ MADANIYATI  
O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Ta'lism
<b>Ta'lim sohasi:</b>	110000 – Ta'lism
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi IO‘NM1204	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majbuliy	Ta’lim tili O‘zbek	Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ifodali o‘qish va nutq madaniyati	60	60	120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Fanning maqsadi – talabalarga ifodali o‘qish va nutq madaniyatining bog‘liqligini tushuntirish, mutolaa jarayonida ifodali o‘qish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, nutqni tinglovchilarga ta’sirchan yetkazish hamda madaniy nutq tarbiyasini o‘rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – mazkur fan doirasida talabalarga ifodali o‘qish va nutq madaniyatining adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini, mutolaa jarayonida suxandonlikka xos marom, ohang, urg‘u, talaffuz va ifodaning muhim vazifa bajarishini tushuntirish va zaruriy tavsyalar berish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.</p>			
	<p><b>II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati fanining maqsadi, vazifasi va ahamiyati.</b></p> <p>Ifodali o‘qish va nutq madaniyati fanining maqsadi va vazifasi fanning bo‘limlari, o‘rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish, mutolaa madaniyati, qiroatxonlik, nutq madaniyati va notiqlik san’ati, olimlarning til va nutq haqidagi fikrlari bilan tanishish.</p> <p><b>2-mavzu. Ifodali o‘qishda nafas, ovoz va talaffuzning o‘rni.</b></p> <p>Ifodali o‘qishda nafasdan to‘g‘ri foydalanish, ovozning ahamiyati, to‘g‘ri talaffuz qilish. Mutolaa jarayonida jumla, so‘z va tovushning vazifasi, psixologik funksiyaga yo‘naltirilishi, so‘zning psixologik ta’sir kuchiga ega bo‘lishi, matn bo‘laklarining semantik-struktural vazifalari, obraz mohiyatini ochishda va tushunib etishda jumla, so‘z va tovushning zarur retseptiv komponent vazifasini bajarishi.</p> <p><b>3-mavzu. Ifodali o‘qish vositalari.</b></p> <p>Urg‘u va uning turlari. Pauza va uning turlari. Ifodali o‘qishda pauzaning ahamiyati. Intonatsiya, temp va ritm – ifodali o‘qishning asosiy vositalari sifatida. Intonatsiya va intonatsion vositalar. Ritm. She’riyatda ritm turlari. Temp. Nutq tempini belgilovchi vositalar. Ifodali o‘qishda yuz ifodasi va harakat. Ifodali o‘qishda ijroning ahamiyati.</p>			

#### **4-mavzu. Lirik turdag'i asarlarni ifodali o'qish.**

Lirik turdag'i asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari. Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish. Erkin vazndagi she'rlarning o'ziga xos jihatlari. Aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish. Aruz va uning o'ziga xos xususiyatlari. Hijo va uning turlari. Ifodali o'qishda hijo va ruknning o'rni. G'azalni ifodali o'qish.

#### **5-mavzu. Epik va dramatik asarlarni ifodali o'qish.**

Latifa va hikoyalarning g'oyaviy xususiyatlarini aniqlash va ifodali o'qish. Ertaklarni ifodali o'qishda mavzu va g'oyani aniqlashning ahamiyati. Hikoya va qissalarni ifodali o'qish. Romanlarning mavzu va g'oyasini aniqlash. Romanlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda muallif nutqi, dialog, monolog va ichki nutqning o'ziga xos xususiyatlari.

#### **6-mavzu. Nutq madaniyati tushunchasi va tarixi.**

Nutq madaniyati tushunchasi. Nutq madaniyati va muomala odobi. G'arb va Sharq mutaffakkirlari ijodida nutq madaniyati, so'zlashish odobi masalalari. Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Jamiyat taraqqiyoti va nutq madaniyati.

#### **7-mavzu. Notiqlik san'ati tarixi.**

Notiqlik san'atining shakllanish tarixi. Notiqlikning yuzaga kelish omillari. Yunon notiqligi. Qadimgi Yunoniston – notiqlik san'atining vatani. Qadimgi Gretsiyada notiqlar faoliyati. Xalq yig'inlarining notiqlik san'atining shakllantirishdagi o'rni. Ijtimoiy-siyosiy masalalarda omma e'tiborini tortishning muhimligi. Fikr va g'oyalarni to'g'ri va ta'sirchan ifodalashning ahamiyati. Ta'lif tizimida notiqlikning o'mni, og'zaki va yozma nutqning ahamiyati.

#### **8-mavzu. Notiqlikning turlari va ko'rinishlari.**

Notiqlik san'atining ijtimoiy mavqeyi shu qadar keng va sertarmoqki, u har bir sohada me'yori, mazmuni va shakli, o'ziga xosligi, ta'sir kuchi va tomonlari jihatidan farqlanadi. Notiqlik san'ati turlari. Siyosiy-ijtimoiy notiqlik. Akademik notiqlik. Sud notiqligi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik. Diniy notiqlik.

#### **9-mavzu. Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari.**

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir - baxshilari hissasi, yozma adabiy me'yorning shakllanishida yozma adabiyotning ahamiyati. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning rivojlanishi nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

## **10-mavzu. Adabiy til va nutq madaniyati.**

Hozirgi zamон o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatic, orfoepik hamda orfografik, imloviy me'yorlarining nisbatan mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir. O'zbek tili eng boy, eng taraqqiy etgan tillardan biri bo'lib, o'z shakllanish, rivojlanish tarixiga ega. O'zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning og'zaki va yozma adabiyotning asosiy ijodkorlari bo'lган xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o'rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o'ziga xos mavqega ega bo'ldi.

## **11-mavzu. Nutqning kommunikativ sifatlari.**

Nutq sifatlari. Nutqning to'g'rili - nutq madaniyatining birlamchi sharti. Nutqning aniqligi, mantiqiyligi, jo'yaliligi, maqsadga muvofiqligi va ta'sirchanligi. Til sofligi, nutq sofligi uchun kurash - umuxalq ishi. Nutq boyligi va ta'sirchanligi, ularga erishi yo'llari.

## **12-mavzu. Nutq madaniyati va uslubiyat.**

O'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari. Jonli so'zlashuv uslubi. Adabiy til uslublari: ilmiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. Ushbu uslublarning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning keng qamrovliligi. Uning tarmoqlanishi: poetik nutq, dramatik nutq, nasriy nutq kabilalar.

## **13-mavzu. O'zbek nutqi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.**

Til va nutq. Nutq odobi. Nutq harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o'zaro mantiqiy bog'lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq so'z, so'z birikmalari va gaplardan iborat bo'ladi. Nutq, nutq odobi insonning ma'naviyatini-ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Nutq madaniyatida ruhiyat, bilim, savodxonlik, samimiyat, e'tibor, subyektiv mulohaza kabilarning ahamiyati.

## **14-mavzu. O'zbek muloqot xulqining gender xususiyatlari.**

O'zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari, kasbhunar va yosh bilan bog'liq jihatlari. O'zbek erkak va ayollar muloqot xulqiga xos bo'lган farqli xususiyatlar.

## **15-mavzu. Pedagogning nutqiy madaniyati.**

O'qituvchi nutqida fikrning aniq, mantiqan to'g'ri, ta'sirli va maqsadga muvofiq bo'lishi markaziy masalalardan hisoblanadi. O'qituvchi til vositalaridan eng muvofig'ini tanlay bilishi, o'z ona tilining barcha imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olishi, bir so'z bilan aytganda chin ma'nodagi notiq bo'lishi zarur. Kasb etikasi, pedagogik axloq tushunchasi. Pedagogik muloqot tushunchasi. Pedagog muloqotida nutq madaniyatining tutgan o'mi.

### **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ifodali o‘qish va nutq madaniyati fanining maqsadi, vazifasi va ahamiyati.
2. Ifodali o‘qishda nafas, ovoz va talaffuzning o‘rni.
3. Ifodali o‘qish vositalari.
4. Lirik turdag‘i asarlarni ifodali o‘qish.
5. Epik va dramatik asarlarni ifodali o‘qish.
6. Nutq madaniyati tushunchasi va tarixi.
7. Notiqlik san’ati tarixi.
8. Notiqlikning turlari va ko‘rinishlari.
9. Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari.
10. Adabiy til va nutq madaniyati.
11. Nutqning kommunikativ sifatlari.
12. Nutq madaniyati va uslubiyat.
13. O‘zbek nutqi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari.
14. O‘zbek muloqot xulqining gender xususiyatlari.
15. Pedagogning nutqiy madaniyati.

### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

#### **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Ifodali o‘qish vositalari.
2. Lirik turdag‘i asarlarni ifodali o‘qish.
3. Epik va dramatik asarlarni ifodali o‘qish.
4. G‘arb madaniyati tarixida notiqlik san’ati.
5. Sharq madaniyati tarixida notiqlik san’ati.
6. Xalq og‘zaki ijodida nutq odobi .
7. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida suxandonlik xususida.
8. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san’ati masalalari talqini.
9. Husayin Voiz Koshifiy notiqlik san’ati haqida.
10. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarida notiqlik.
11. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik.
12. Akademik notiqlik.

	<p>13. Sud notiqligi.</p> <p>14. Diniy notiqlik.</p> <p>15. Harbiy vatanparvarlik notiqligi.</p> <p>16. Nutqning kommunikativ sifatlari.</p> <p>17. Muloqot madaniyati, nutqiy etiket.</p> <p>18. Til va nutq.</p> <p>19. Nutq odobi. Nutq harakatdagi tildir</p> <p>20. Nutq, nutq odobi insonning ma'naviyatini-ma'rifikatini belgilovchi asosiy mezonligi haqida.</p> <p>21. Nutq madaniyatida ruhiyat, bilim, savodxonlik, samimiyat, e'tibor, subyektiv mulohaza kabilarning ahamiyati.</p> <p>22. O'qituvchi nutqida fikrning aniq, mantiqan to'g'ri, ta'sirli va maqsadga muvofiq bo'lishi markaziy masalalari.</p> <p>23. O'qituvchi til vositalaridan eng muvofiq'ini tanlay bilishi.</p> <p>24. Ona tilining barcha imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olish ko'nikmasi.</p> <p>25. Kasb etikasi, pedagogik axloq tushunchasi.</p> <p>26. Pedagog muloqotida nutq madaniyatining tutgan o'mni.</p> <p>27. Pedagogik muloqot tushunchasi.</p> <p>28. O'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari.</p> <p>29. Jonli so'zlashuv uslubi. Ushbu uslublarning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>30. Adabiy til uslublari: ilmiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub.</p>
3.	<p><b>V. Ta'lism natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ifodali o'qish va nutq madaniyati fanining ahamiyati, tushunchalari va tamoyillarini chuqur tushunishi, umumiy <b>bilimga ega bo'ladi</b>;</li> <li>• ifodali o'qish va nutq madaniyatining bog'liqligi, mutolaa jarayonida ifodali o'qish vositalaridan to'g'ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, nutqni tinglovchilarga ta'sirchan yetkazish hamda madaniy nutq tarbiyasi bo'yicha bilim, ko'nikma va <b>malakaga ega bo'ladi</b>;</li> <li>• ifodali o'qish va nutq madaniyatining adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, falsafa, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi, mutolaa jarayonida suxandonlikka xos marom, ohang, urg'u, to'g'ri talaffuz <b>ko'nikmasiga ega bo'ladi</b>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lism texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. O‘qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent, 2020. B. – 124. Bo‘limi: o‘quv qo‘llanma.</li> <li>2. Raupova Laylo. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2023.B.–136. Bo‘limi: darslik</li> <li>3. Rasulov R., Botirova Sh., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent, 2020.</li> </ol> <p><b>Qo‘srimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mo‘ydinov Q.A., Shofqorov A.M., Tajiboyev B.R. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. –Toshkent: Bookmany print, 2022.</li> <li>2. Jumaxo‘ja N. Istiqlol va ona tilimiz. – Toshkent: Sharq, 1998.</li> <li>3. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –Buxoro, 2002.</li> <li>4. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. –Toshkent: G‘.G‘ulom, 2012.</li> <li>5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. –Toshkent: Cho‘lon, 2012.</li> <li>6. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent, 2007.</li> <li>7. Raupova Laylo. Nutq madaniyati.–Toshkent, 2021.B.–136. Bo‘limi: darslik</li> <li>8. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent, 1989.</li> <li>9. Tojiyev Y., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2006.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>4. Internet ma’lumotlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.ziyo.net">www.ziyo.net</a></li> <li>2. <a href="http://www.thinsan.com">www.thinsan.com</a></li> <li>3. <a href="http://www.uforum.uz">www.uforum.uz</a></li> <li>4. <a href="http://www.literature.uz">www.literature.uz</a></li> <li>5. <a href="http://www.cspl.uz">www.cspl.uz</a></li> </ol>
7.	<b>O‘quv dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab</b>

	chiqilgan va universitet kengashining 2024-yil - <u>25</u> - <u>arjost</u> daqgi <u>1-</u> sunli yig'iliish bayoni qarori bilan tashqillangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sul: <b>Q.A.Mav'dinov</b> - Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilahmonligi kafedrasini direktori, ffb.f.d. (PhD)
9.	Taqribachilar: <b>Rasulov R.</b> - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbek tilahmonligi" kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori, professor. <b>Jumayjon Asimov</b> - Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU baxzidagi Davlat tilida int yurtish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi direktori, filologiya fanlari doktori, direktori.